



SCIENCE BOX

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATIDA JANRLARNI O'RNI

Rahmatov Bekzod O'ktam o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Alisherova Dilshoda Azizzon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy hayoti, ijodiy faoliyati va uning asarlarida janrlarning o'rni haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: Ijodiy ishlari, janr, masnaviy, musallam, shoir, Xamsa.

Asl ismi Nizomiddin Mir Alisher. U Hirotda tug'ilib, shu yerda umrining asosiy qismini o'tkazgan. Navoiyning otasi G'iyosiddin Bahodir temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan. She'r zavqi va iste'dodi erta uyg'ongan. Bolalikdayoq Farididdin Attorning „Mantiquyt-tayr“ asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta'lif olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Navoiy 1469 yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan. Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o'tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlilik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480—1500 yillar mobaynida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo'lovchilar to'xtab o'tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'pri, 20 ta hovuz qudiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyiga „muqarrabi hazrati sultoniy“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko'ra Navoiy davlatning barcha ishlari aralasha olardi. Alisher Navoiy tarjimai holi o'z davrida Xondamir, Vosifiy, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarining asarlarida aks etgan. O'zbek olimlari Ozod Sharafiddinov, V.Mahmud, Oybek, Yahyo G'ulomov, Izzat Sulton, A.Zohidov, V.Abdullaev, A.Qayumov, S.G'anieva v.b. Navoiyning hayot yo'li haqida asarlar yaratishgan. 1947-yilda Komil Yormatov «Alisher Navoiy» filmini suratga oldi.

Masnaviy janrining taraqqiy etishida, ayniqsa, Alisher Navoiyning hissasi juda katta. Navoiy turkiy adabiyotning durdonasi bo'lgan "Xamsa" asarini masnaviy janrida yozgan. "Tarixi mulku Ajam" asarida masnaviy janri qo'llangan. Bu asarda Navoiy Husayin Boyqoroqga maktublarini masnaviy janrida yozgan.

Masalan:

Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan ushbu masnaviyda Navoiy podshohning qanday bo'lishi kerakligi haqidagi o'z fikrlarini yakunlamoqchi bo'lib, bu masalaga yana bir karra to'xtaladi va podshoh haqida deydi:

Adolat uchun istasa mulku joh,

Sitam daf' aylarga cheksa sipoh,





SCIENCE BOX

Har ishkim bolur muddaosi aning,

Garaz bo'lsa tengri rizosi aning,

Bo'lub sultanat taxtida faqrjo'y,

Shah o'lsa vale bo'lsa darveshxo'y.

Bu misralardan korinib turganidek, Navoiyning podshohlarniadolatli bo'lishga, darveshvash bolishga, "faqrjo'y" bo'lishga chaqiradi. O'z asarlarida qayta-qayta ta'kidlagan fikrlarini, ya'ni darveshvash podshoh haqidagi qarashlarini yana bir qayd etadi.¹

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asaridagi masnaviyda berilgan Husayn Boyqaro obrazini o'rganish jarayonida shunday umumiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Husayn Boyqaro tarixiy shaxs sifatida Navoiyning eng yaqin do'sti va maslahatchisidir. Uning podsholik sultanatida,adolatli va oqilona davlat boshqaruv ishlarida Navoiy qanchalik ko'p ko'mak bergen bo'lsa, Navoiy butun dunyoga taniqli ijodkor bo'lishida, shoh asarlarining yaratilishida Husayn Boyqaro ham xuddi shunday ko'p madad berib turgan, unga yol-yo'riq ko'rsatib turgan. Navoiyning o'zi juda ko'p bor ta'kidlaganidek, shoir asarlarining yozilishida Husayn Boyqaro bosh-qosh bo'lган, ularning birinchi o'quvchi ham Sulton Husayn Boyqaro bo'lган.
2. Husayn Boyqaro obrazining Navoiy asarlaridan joy olishini yaqqol korsatadigan dalillar juda kop. Shoirning "Xazoyin ul-maoni" kulliyotidagi debochada Navoiy Husayn Boyqaro haqida, uning devonlar yaritilishidagi xizmatlari haqida alohida to'xtalgan bo'lsa, Navoiy "Xamsa"sidagi barcha dostonlarda Husayn Boyqaro obraqi, uning ta'rif-tavsifini keltiradi. Ushbu asarlarda berilgan fikrlarga tayangan holda ham Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari haqida ma'lumot olish mumkin.
3. Navoiy o'zining deyarli har bir asarida, hoh u lirik asar bo'lsin, hoh nasriy asar bo'lsin,adolatli hukmdor haqida, odil podshohlar haqida, ularning amallari, amalga oshirishi lozim bo'lган ishlar haqida, odillik bilan boshqarilgan davlatning obod bo'ilishi, xalqi farovon bolishi xususida alohida to'xtaladi. Shu an'anaga amal qilgan mutafakkir o'zining Eron shohlari tarixiga bag'ishlangan "Tarixi muluki Ajam" asarida ham odil podshohlarni ko'klarga ko'tarar ekan, asar nihoyasida berilgan maxsus masnaviyda ham xuddi jihatga katta e'tibor beradi. Unda Navoiy podshohlarniadolatli bo'lishga, darveshvash bolishga, "faqrjo'y" bolishga chaqiradi. Oz asarlarida qayta-qayta ta'kidlagan fikrlarini, ya'ni darveshvash podshoh haqidagi qarashlarini yana bir qayd etadi.
4. "Tarixi muluki Ajam" asarida berilgan masnaviyda Navoiy Husayn Boyqaroni xuddi shunday sifatlarga ega shoh sifatida talqin etadi. Shoirning ta'rificha, Sulton Husayn Boyqaroda nafaqat shohlik , balki darveshlik sifatlari ham mujassam:

Shaho keldi shahlig', musallam sanga,

Ne shahlig'ki, darveshlig' ham sanga.

Shohni ana shu sifatlar bilan ulug'lagan shoir uning vasfini "mingdin birin" demakka imkoniy yo'qligini qayd etadiki, bu ulug' Navoiyning Sulton Husayn Boyqaroga nisbatan buyuk hurmatini bildiradi.

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n oltinchi tom. Tarixi muluki Ajam. Nashrga tayyorlovchi L.Xalilov.-T.: O'zR FA «Fan» nashriyoti. 2015. 196-257 betlar.



SCIENCE BOX

5. Masnaviyda shoir ozi tomonidan yaratilgan asarlari – “Xamsa” asarini, to‘rt devondan tarkib topgan she’riy kulliyotini, “Nazmul javohir” asarini, shuningdek boshqa asarlarida berilgan katta-kichik she’riy baytlarini birma-bir qayd etar ekan, ularning hech biri shoh Husayn Boyqaro ta’rifini to‘lig‘icha qamrab ololmaganligini ham alohida ta’kidlaydi. Ammo “Vale barcha vasfingda mujmal edi” misrasi orqali do‘sti haqida yozganlarning hech biri uning to‘liq ta’rifini qamrab ololmaganligini bayon etadi.
6. Husayn Boyqaro haqida yozilgan ushbu masnaviyning yana bir xarakterli jihatni shundaki, u Navoiyning ijodiy niyatlarini haqida ham ma’lumot beradi. Shoir o‘zining ulug‘ bir niyati haqida ham to‘xtaladi, ya’ni Xudo umr bersa, Husayn Boyqaro sifatlari, uning zohiru botini, tug‘ilgan kunidan boshlab to asar yozilgan vaqtgacha amalga oshirgan ishlari, qilgan yaxshi amallari, “jahondorliq shavkati”ning sabablari xususida bir asar yozajagi haqida ma’lumot beradiki, bu alohida e’tiborga sazovordir.
7. Masnaviy nihoyasida Navoiy jahoning shahsiz bo‘lishi mumkin emasligi, “zamon ahli” uchun eng adolatli shoh Husayn Boyqaro ekanligi, shuning uchun ham qiyomatgacha barcha shohlar unga ehtirom korsatishlari lozimligi haqidagi romantik fikrlar bilan shoir Husayn Boyqaro xususidagi o‘z qarashlarini yakunlaydi.²

„Xazoyin ul-maoni“dan o‘rin olgan bitta masnaviy ham Sayyid Hasan Ardashev nomi bilan bog‘liq. Ma’lumki, masnaviy arabcha „ikkilik“ ma’nosini bildirib, har bandi ikki misradan tarkib topuvchi va a-a, b-b, d-d... tarzida qofiyalanuvchi she’r turidir. Navoiy o‘zining „Sab’ai sayyor“ dostonida bu janrni alohida tavsiflab, uni „vase“ – keng maydon deb ataydi:

Masnaviykim, burun dedim oni,

So‘zda keldi vase’ maydoni.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan masnaviyлarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

1. lirik masnaviy (shoirning lirik kechinmalari, his-tuyg‘ulari ifoda etiladigan she’r shakli);
2. epik masnaviy yoki doston (sujet asosiga quriladigan katta hajmli asar).

„Xazoyin ul-maoni“ kulliyotidan o‘rin olgan masnaviy lirik masnaviy bo‘lib, „G‘aroyib us-sig‘ar“ devoniga kiritilgan. Masnaviy she’riy maktub tarzida yozilgan va hajman 148 baytdan iborat. Navoiyshunoslikda ushbu masnaviy tarjimayi hol xususiyatiga egaligidan „Hasbi hol“, noma janriga mansubligidan „Navoiyning Sayyid Hasanga she’riy maktubi“ deb ham yuritiladi. Masnaviyda Allah hamdi va Payg‘ambar na’tidan so‘ng Sayyid Hasan Ardashev shaxsiga ta’rif-u tahsinlar aytildi, uning fazl-u kamoloti, vafodorligi va saxovati madh etiladi:

Vafo anga pesha, saxo anga fan,

Vafou saxo koni Sayyid Hasan.

Keyingi baytlarda shoir maktub yozishdan asosiy maqsadini bayon qilib, uning boshiga musofirlik – Vatan tarki tushganligini ma’lum qiladi va ushbu safarning sabablari sifatida Xurosonda ijod qilish uchun imkoniyatning yo‘qligini, yurtdagi notinchlik va ilm egallahsha bo‘lgan ehtiyojni sanab o‘tadi.

² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n oltinchi tom. Tarixi anbiyo va hukamo. Matnni nashrha tayyorlovchi L.Xalilov.-T.: O‘zR FA «Fan» nashriyoti. 2015. 97-194 betlar.



SCIENCE BOX

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES

www.sciencebox.uz

Volume: 03 Issue: 05 / May - 2023

ISSN: 2181-2594

Unda shuningdek, so‘z ta’rifi, she’r va shoirlik, badiiy ijod bilan bog‘liq masalalar ham qalamga olingan. Masnaviy mutaqorib bahrining mutaqoribi musammani mahzuf (afoyili va taqtisi: fauvlun fauvlun faal, V – / V – / V – / V –) vaznida yozilgan.

Abdulla Avloniyning masnaviyatlari:

«Maktab gulistoni» milliy she’rlari beshinchchi juzidan

Tug‘ulub o‘sdim bu Vatanda,

Vatanim misli yo‘q jahonda!

Tufrog‘lari o‘sumlikdur,

Manzarasi ko‘rumlikdur.

Bir tarafda tog‘lari bor,

Mevasi mo‘l bog‘lari bor.

Tog‘laridan konlar chiqar,

Yerlaridan donlar chiqar.

Suvlaridur tamlu-totli,

Mevasi qandu nobotli.

Bog‘laridur shirin-sharbat,

Anjir, uzum, anor, nashvat.

Daraxtlari o‘sar firosh,

Falak uzra ko‘tarub bosh.

Havosi o‘ta yoqimlik,

Cho‘llari bor toshlik, qumlik.

Toshkand emas, toshqand erur,

Kesaklari gulqand erur.

Ishlaganga xazinadir,

Dangasaga harinadur.

Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning masnaviy janrida yozilgan “Tanobchilar” asaridan parcha:

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,

Arz etayin emdi yozib nomalar,

Adl qulog‘ila eshit holimi

Zulm qilur, baski, menga zolimi,

O‘n ikki oyda keladur bir tanob,

O‘zgalara rohat-u menga azob.

Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikav,





SCIENCE BOX

Biri xotun, birisi bo'ldi kuyav.

Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,
Go'yo xayol aylaki, (qilmay nifoq),
Osh yesalar o'rtada sarson ilik,
Xo'ja chirog' yog'i, Hakimjon pilik.

Xulosa

Mumtoz adabiyotda syujetli kichik asarlar ham, dostonlar ham masnaviy deb yuritilgan. Turkiy adabiyoda masnaviy shakli ilk bor Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llanilgan. Durbekning "Yusuf va Zulayho", Haydar Xorazmiyning "Mahzan ul-asror" asarlari masnaviyda bitilgan. Navoiy davriga kelib masnaviy epik she'riyatning asosiy janri bo'lib qoldi. Ulug' shoirning "Xamsa", "Lison ut tayr" va boshqa ko'plab asarlari masnaviy janrida yozilgan. Masnaviyda asar yozish qulay va shu bilan birgalikda misralar rang-barang bo'ladi. Misralar o'ynoqi va o'quvchining zavqini keltiradi. Aynan, shu jihatdan ham ko'plab ijodkorlar masnaviy janrida ijod qilishgan. Mumtoz adabiyotimizdagi eng yirik she'riy asarlar ham masnaviy janrida yozilgan.³

To'rt devon birla nazmi panj ganj,
Dast berdi chekmayin anduhu ranj.
Nazmi nasrin kotibi taxminshunos
Yozsa yuz ming bayt etar erdi qiyos.

Alisher Navoiy "Me'zon ul-avzon" risolasida masnaviy janrini "vase' maydon" ya'ni keng maydon deb ta'riflagan. Masnaviy janri qulay bo'lganligi uchun ham unda juda ko'p ijodkorlar ijod qilishgan. Chunki masnaviyda har bir baytning misralari qofiyadosh bo'ladi va baytdan baytga qofiyasi yangilanib boradi. O'zbek mumtoz adabiyotida masnaviy janrining ahamiyati juda katta. Aynan, shu janrda Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini yozgan va bu orqali she'riy janrlar orasida masnaviy janrining ahamiyatini bir pog'ona yuksaltirgan. Navoiydan keying davrlarda ham masnaviy janri o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu janrda keyinchalik ham juda ko'p ijod ahli ijod qildi. Masalan, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy "Tanobchilar" hajviyasini aynan, masnaviy janrida yozgan. Bu esa asarning yanada jozibali chiqishini taminlagan.

Masnaviy hozirgi zamon o'zbek she'riyatida ham qo'llanilmoqda. Masalan, H.Olimjonning "O'zbekiston" she'ri, G',G'ulomning "Ko'kan", "Egalari egallaganda" dostonlari va boshqalar. Hamid Olimjonning "O'zbekiston" she'ri masnaviy janri oqali juda betakror, o'ynoqi ohangga ega. Misralar o'zaro qofiyalanishi va misralardagi bir-biriga bog'liqlik she'ning ohangdorigini va tez esda qolishini ta'minlagan deb o'layman.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. 2 tom. XV asrning ikkinchi yarmi.-T.: 2012.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n oltinchi tom. Tarixi anbiyo va hukamo. Matnni nashrga tayyorlovchi L.Xalilov.-T.: O'zR FA «Fan» nashriyoti. 2015. 97-194 betlar.

³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n oltinchi tom. Tarixi muluki Ajam. Nashrga tayyorlovchi L.Xalilov.-T.: O'zR FA «Fan» nashriyoti. 2015. 186-236 betlar.



SCIENCE BOX

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES

www.sciencebox.uz

Volume: 03 Issue: 05 / May - 2023

ISSN: 2181-2594

3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n oltinchi tom. Tarixi muluki Ajam. Nashrga tayyorlovchi L.Xalilov.-T.: O‘zR FA «Fan» nashriyoti. 2015. 196-257 betlar.
4. L.Xalilov. Texnologicheskoye issledovaniye sochineniye Alishera Navai «Tarixi muluki Ajam». Avtoref. Diss.. kand. Filol. Nauk.-T.: 2015
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. O‘n beshinchi tom. Xamsat ul-mutahayyirin. P.Shamsiyev matni asosida tarjima va izohllarni to‘ldirib, nashrga tayyorlovchi S.G‘aniyeva.-T.: O‘zR FA «Fan» nashriyoti. 2019. 5-85 betlar.

Internet manbaalari

1. www.lex.uz.
2. www.ziyonet.uz.
3. www.edu.uz.

